

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHABONOVA SHAXNOZA BAXRIDDINOVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING HISSIY
BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK
IMKONIYATLARI**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning
metodik imkoniyatlari 3

Шабонова Шахноза Бахриддиновна.

Методические возможности формирования эмоциональной устойчивости
будущих учителей английского языка 27

Shabonova Shakhnoza Bakhriddinovna

Methodological possibilities for developing emotional stability in future English
teachers 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHABONOVA SHAXNOZA BAXRIDDINOVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING HISSIY
BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK
IMKONIYATLARI**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9542 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali – www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qurbonova Gulnoz Ne'matovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyeva Feruza Melsovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "1" noyabr kuni soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil "21" oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "21" oktabr dagi 7 -raqamli reyestr bayonnomasi).



G.V.Izbullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Y.B.Ro'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh.Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida o'qituvchining hissiy barqarorligi, chidamliligi, bardoshliligi pedagogik jarayonning samaradorligini belgilovchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim sifatini belgilovchi mezonlardan biri o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi sog'lom, barqaror munosabatlar, o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyati, hissiy zo'riqishlarga bardosh berish holati orqali belgilanadi. Finlyandiya, Kanada, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda pedagoglarni kasbiy tayyorlashda hissiy barqarorlik maxsus dasturlar orqali shakllantirilib, bu o'qitish shakli ta'lim jarayonining asosiy mezoni sifatida qaraladi. Jahon ta'lim amaliyotida o'qituvchining hissiy barqarorligi, psixik holati, o'quvchilarning sog'lom ijobiy muhitini ta'minlash emotsional layoqat bilan bevosita bog'liq. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishda bevosita ta'lim mazmunini takomillashtirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion dars shakllari va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlari o'rtasida globallashuv jarayonining kengayishi, ingliz tiliga bo'lgan qiziqishning oshib borishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni taqazo etmoqda. YUNESCO kabi xalqaro ta'lim tashkiloti va SEL (Social and Emotional Learning) dasturlari tomonidan o'qituvchilarda hissiy barqarorlikni shakllantirish bo'yicha zamonaviy texnologiyarni ishlab chiqmoqda. Bu texnologiyalar o'qituvchini bilim beruvchi emas, balki barqaror psixologik holatni ta'minlay oladigan shaxs sifatida shakllanishini nazarda tutadi. Ingliz tilini o'qitishda dunyo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida o'quvchilar emotsional bloklarga: xavotirga, tilni o'zlashtirmaslik va qo'rquvga duch kelishi kabi muammolar o'qituvchining hissiy barqarorligini talab etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standart talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi..."da "...uzluksiz ta'lim tizimi sifatini oshirish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, o'quv jarayoniga innovatsion loyihalarni olib kirish..."¹ kabi vazifalar ijrosini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning hissiy barqarorligi, psixologik tayyorgarligi, ingliz tilini o'rganuvchilarning hissiy barqarorligi, o'zaro ishonch, motivatsiya va bilimga bo'lgan munosabatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda hissiy barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan metodik tizimni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish muhim ilmiy-

¹ O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019-yildagi PF-5712-son

amaliy masalaga aylanmoqda. Jumladan, ingliz tilini o'qitish jarayoniga zamonaviy metodikalar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning hissiy barqarorligini, ingliz tili o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, pedagoglarning ijtimoiy-psixologik holatiga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, F.M.Rashidova²lar tomonidan hissiy barqarorlik muammosi tadqiq etilgan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish muammosi T.K.Sattarov, X.D.Paluanova, D.R.Djumanova, D.U.Xoshimova, B.G.Kulmatov, M.A.Nazarova, B.R.Samatova, M.R.Fayzieva, F.Sh.Alimov³larning izlanishlarida tadqiq qilingan.

² Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. – 120 с., Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. –Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с., Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – 430 б., Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: 2017. – 309 с.

³ Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис...д-ра пед.наук. –Ташкент, 2000. – 32 с., Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари: Автореф. дисс. ... филол.фан. докт. – Тошкент, 2016. – 28 б., Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. – 266 с., Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с., Кулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф. –Т.: 2018. – 45 б., Назарова М.А. Инглиз тилидаги матнларни ўқишда талабаларни лексик полисемияга ўргатишни такомиллаштириш. Педагог. фан.д-ри. ... дисс. автореф. –Т.: 2018. –42 б., Саматова Б.Р. Инглиз тилини ўқитишда нофилологик йўналиш талабаларининг мотивацияси (юриспруденция йўналиши талабалари. 150 б.; Файзиева

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.V.Savchenkova, V.E.Medvedeva, E.M.Semenova, A.A.Chernikova, O.A.Kazakova, S.M.Abramov, I.A.Ivanova, Y.B.Abakumova, A.Y.Ayzenberg, L.G.Juk, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, G.I.Ruzavin, G.V.Ayzenk, K.K. Platonov⁴lar bo'jak o'qituvchilarda intellekt va bardoshlilikni shakllantirishga doir tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Xorijlik olimlardan W.Atkinson, Derek Anthony Cabrera, D.Q.McInerny, C.McGuinness, J.A.Belz, B.S.Bloom, P.Boyd, E.White, A.Szplit, Doff Adrian⁵lar o'qituvchilarni tayyorlashda hissiy barqarorlik, emotsional regulatsiya xususiyatlarining buzulishlari, shaxsning psixik rivojlanishdagi muammolar bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Soha olimlari tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning metodik jihatlarini yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, biz tadqiq qilayotgan muammo, ya'ni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish masalasi alohida monografik tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pedagogika sohasiga oid muammolarni bartaraf etish hamda zamonaviy

M.P. «Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш» педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) дисс. ... автореф. Тошкент, 2017. – 45 с., Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish. Avtoref. Diss. ... ped.fan. falsafa dok. – Toshkent, 2018;

⁴ Савченкова А.В. Эмоциональный интеллект и стрессоустойчивость: подходы к формированию у будущих учителей. // Вестник педагогических исследований. – 2022. – №2(58). – С. 45–52., Медведова В.Е. Психологическая устойчивость и профессиональное выгорание педагогов. – Санкт-Петербург: Речь, 2020. – 176 с., Семёнова Е.М. Современные технологии развития эмоциональной устойчивости у преподавателей. – Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2023. – 192 с., Черникова А.А. Диагностика и коррекция эмоциональной неустойчивости у педагогических работников. // Наука и образование: современные тенденции. – 2024. – №4. – С. 88–94., Казакова О.А. Развитие эмоциональной устойчивости педагогов в условиях профессиональной деятельности: монография. – Москва: Просвещение, 2021. – 208 с., Абрамов С.М. Воспитание образовательной самостоятельности студентов гуманитарных вузов в процессе дистанционного обучения: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: – Екатеринбург, 2003. – 228 с., Иванова И.А. Самостоятельная работа как условие развития индивидуальности студентов педагогических вузов: дисс. канд. пед. наук: – Волгоград, 2008. – 191 с., Абакумова Е.Б. Теория вопроса самообразования в философской, психолого – педагогической и социологической литературе / Е. Б. Абакумова // Актуальные задачи педагогики: сбор. матер. междуна. заочной науч. конф. – Чита: Молодой ученый, 2012., Айзенберг А.Я. Самообразование: история, теория и современные проблемы / А.Я. Айзенберг. – М.: Высшая школа, 1986. – 128 с., Жук Л.Г. Интернет – технологии как средство организации самостоятельной работы студентов технических вузов: на материале обучения иностранному языку: дисс. ... канд. пед. наук: – СПб., 2006. – 265 с., Максимова В.Н. Меж предметные связи в процессе обучения /Москва: Просвещение, 1988. – 192 с., Махмутов М.И. Современный урок. Вопросы теории: Монография. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Педагогика, 1986. – 184 с., Рузавин Г.И. Концепции современного естествознания: Учебник для вузов. – Москва: ЮНИТИ, 2000. – 287 с., Айзенк Г. В. Психология индивидуальности. Факторные теории личности/Ганс Юрген Айзенк и Гордон Виллард Олпорт //М.: Юстицинформ.-95 с. – 2002., Platonov K. K. The problem of personality in social psychology //Soviet Psychology. – 1972. – Т. 11. – №. 1. – С. 123-138.

⁵Atkinson W. William The Art of Logical Thinking / William W. Atkinson. – NC.: LuluPress, 2012. – 227 p., Derek Anthony Cabrera. Systems thinking. A Dissertation Presented to the Faculty of the Graduate School of Cornell University in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. 2006., McInerny D.Q. Being Logical: A Guide to Good Thinking / D.Q.McInerny. – Los Angeles:the Hardcover edition, 012. – 301 p., McGuinness, C. From thinking skills to thinking classrooms. Research brief, 1999. – 115 p., Belz J.A., Thorne S.L. Computer mediated Intercultural Foreign Language Education. Boston, MA: Heinle & Heinle, 2006., Bloom B. S. Taxonomy of educational objectives. Volume II: The Affective Domain / B. S. Bloom, B. B. Masia, D. K. Krathwohl. New York: Mckay, 1964., Bloom, B.S.(Ed.).1956. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals: Handbook I. cognitive domain. NewYork: Longman., Boyd, P. & White, E. (2017). Teacher Educator Professional Inquiry in an Age of Accountability. In: Boyd, P. & Szplit, A. (eds.) Teacher and Teacher Educator Inquiry: International Perspectives. Kraków: Attyka, Bullock, S. M., & Christou, T. (2009). Exploring the radical middle between theory and practice: A collaborative self – study of beginning teacher educators. Studying Teacher Education, 5(1), 75–88., Doff Adrian. Teach English. Cambridge University Press in association with the British Council, 2004.,

yondashuvlarni amaliyotga joriy etish” (2022-2025-yillar)ga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish metodikasi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirishning amaldagi holatini aniqlash;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning innovatsion usuli va topshiriqlarni takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirishga asoslangan ta’limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligi va adaptiv hamda amaliy yo‘nalganlik tamoyillarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning didaktik va metodik ta’minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Buxoro davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universiteti, Qarshi davlat universitetlaridan 585 nafar talaba jalb qilingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish, falsafiy, pedagogik, psixologik, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa, savol-javob, test, matematik-statistik tahlil, anketa-so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish mazmuni innovatsion ta’lim muhitini yaratish, refleksiv-kognitiv motivatsiyali tamoyillar integratsiyasi va refleksiv aloqalarni ta’minlash o‘qituvchi faoliyatining amaldagi holatini prognozlash asosida aniqlashtirilgan;

ingliz tili o‘qituvchilari hissiy barqarorligini shakllantirishning turli darajadagi (“obyekt-obyekt”, “obyekt-subyekt”, “subyekt-subyekt”) ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida intellektual salohiyati, kreativ fikrlashi, kasbiy-ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirishning ilmiy-metodik ta’minoti takomillashtirilgan.

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirishning tarkibiy asoslari (mazmuni, maqsadi va vazifalari) hamda ta’limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini adaptiv va amaliy yo‘nalganlik tamoyillari asosida rivojlantirish, o‘quv-biluv topshiriqlarini yaratishga qo‘yiladigan kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan metodik talablar hamda ingliz tili darslarini refleksiv moslashtirish asosida shakllantirilgan.

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish vositasi reproduktiv, produktiv, izlanishli, ijodiy mazmundagi faoliyat asosida o‘qituvchilarning ingliz tili fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarini samarali egallashga yo‘naltirilgan didaktik va metodik ta’minot yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikning shakllanish masalalari bo'yicha 60111800- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) va 60112600 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalish talabalari uchun mo'ljallangan "Methodology of teaching English" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi "Write it right: practical guide to task 1" nomi metodik qo'llanma chop etilgan.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikning shakllanish va muammoli izlanishli kreativ mazmunni ask ettiruvchi "Koping strategiyalari indikatori" asosida topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash yuzasidan stressni diagnostika qilish metodikasi amaliyotga tadbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga metodik hamda ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra tasdiqlanadi. Shuningdek, tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, loyihalashning mantiqiyliigi, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, real pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba tahlili, tadqiqotning mantiqiy asoslangan dasturi, qo'yilgan maqsadga erishish hamda tadqiqot vazifalarini hal qilish uchun kompetentlilik, tizimli yondashuv, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish, integrativlik tamoyillarining qo'llanganligi, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga aloqadorligi, pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining hissiy barqarorligini shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarining holatini bevosita kuzatish va o'rganish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijasida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonini tashkil etishda o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish va rivojlantirish salohiyatiga ega bo'lgan metodik materiallar, ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, hissiy barqarorlik jarayonini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanildi.

Dissertatsiya ishida ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv va tavsiyalardan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish jarayonini tashkil etish, mazmunini boyitish, sifat va samaradorligini ta'minlash hamda tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan hissiy barqarorlikni shakllantirish konsepsiyasi,

prinsiplari va vositalari, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirish va rivojlantirish darajasini aniqlashda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirishda, ingliz tiliga oid darslik va qo'llanmalarni yozishga doir yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida hissiy barqarorlikni shakllantirish mazmuni innovatsion ta'lim muhitini yaratish, refleksiv-kognitiv motivatsiyali tamoyillar integratsiyasi va refleksiv aloqalarni ta'minlash o'qituvchi faoliyatining amaldagi holatini prognozlashga oid takliflardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar instituti 2025-yil 25-iyuldagi 1469/02-son ma'lumotnomasi). Natija bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish metodikasi boyitilgan.

ingliz tili o'qituvchilari hissiy barqarorligini shakllantirishning turli darajadagi ("obyekt-obyekt", "obyekt-subyekt", "subyekt-subyekt") ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida intellektual salohiyati, kreativ fikrlashi, kasbiy-ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalardan "Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi" (2024-2025-yy.) mavzusidagi olima ayollar innovatsion loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 5-avgustdagi 01-09/330-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirish orqali o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga erishilgan.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirishning tarkibiy asoslari (mazmuni, maqsadi va vazifalari) hamda ta'limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillari asosida rivojlantirish, o'quv-biluv topshiriqlarini yaratishga qo'yiladigan kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan metodik talablar hamda ingliz tili darslarini refleksiv moslashtirishga oid tavsiyalardan "Methodology of teaching English" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i asosida berilgan 768/650-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni mazmuni yanada boyishiga xizmat qildi.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish vositasi reproduktiv, produktiv, izlanishli, ijodiy mazmundagi faoliyat asosida o'qituvchilarning ingliz tili fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini samarali egallashga yo'naltirilgan didaktik va metodik ta'minot yaratishga oid taklif va tavsiyalardan Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy

davlat universitetlarida ingliz tili o'qitish jarayoniga tadbqiq etilgan. (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2025-yil 18-iyuldagi 02/01-01289-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning metodik imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 5 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shu jumladan, Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining hissiy holati nafaqat uning shaxsiy farovonligi, balki o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar samaradorligi, ta'lim sifatining yuksalishi hamda professional rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bobning *“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari hissiy barqarorligini shakllantirishning ahamiyati”* nomli birinchi bo'limida hissiy barqarorlik tushunchasi shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, nazorat qilish, muvofiqlashtirish va ijobiy yo'nalishga yo'naltira olish qobiliyatini ifodalaydi. U insonning psixologik muvozanatini saqlash, stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, muloqot jarayonida konstruktiv yondashuvni qo'llay olish imkonini beradi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiy barqarorlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy omillardan biridir, chunki o'qituv jarayonida o'qituvchining emotsional holati bevosita ta'lim sifati, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar va pedagogik muhitning sog'lom bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining hissiy barqarorligi uning nafaqat shaxsiy farovonlik holatini, balki ta'limiy maqsadlarga samarali tarzda erishish darajasini ham belgilaydi.

Hissiy barqarorlik – bu shaxsning turli stress omillariga bardosh bera olish, o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, vaziyatga mos ravishda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun ushbu sifatning shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko‘p madaniyatli muloqot muhitida ishlaydi, turli psixologik va pedagogik vaziyatlarga moslashishi zarur bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun hissiy barqarorlikning o‘rni yanada muhimdir. Chet tili o‘qitish jarayoni o‘ziga xos murakkab psixologik va kommunikativ vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Ingliz tili darslarida o‘qituvchi turli xarakter va temperamentga ega o‘quvchilar bilan aloqada bo‘ladi, ularning motivatsiyasini saqlashi, o‘quv jarayonini ijobiy emotsional fon asosida tashkil etishi zarur. Shu sababli hissiy barqarorlik bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida nafaqat qo‘shimcha sifat, balki zaruriy pedagogik kompetensiya sifatida qaraladi.

Hissiy barqarorlik bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga o‘quv jarayonida stressni boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, noan‘anaviy vaziyatlarda tezkor psixologik moslashuvni amalga oshirish, shuningdek, o‘zining kasbiy rivojlanishini barqaror asosda davom ettirish imkonini beradi. Bu sifat ularning shaxsiy emotsional farovonligini ta‘minlabgina qolmay, ta‘lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari chet tilida muloqot qilish, turli madaniyatlararo muloqot muhitida ishlash, ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga bardosh berish kabi jihatlariga tayyor bo‘lishlari lozim. Shu bois, ularning hissiy barqarorligini shakllantirish – zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda.

Bobning *“Pedagogik-psixologik adabiyotlarda hissiy barqarorlik tushunchasi va uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni”* deb nomlanuvchi ikkinchi bo‘limida ilmiy adabiyotlarda hissiyotga turlicha ta‘riflar berilgan bo‘lib, shaxsning ichki hissiy holatini boshqarish, stressli vaziyatlarda o‘zini tuta bilish, ijobiy psixologik muvozanatni saqlash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu sifat insonning emotsional intellekti, irodaviy fazilatlarini hamda moslashuvchanlik darajasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta‘lim jarayonida hissiy barqarorlikning o‘rni beqiyosdir. Chunki pedagogik faoliyat, ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun, yuqori darajada muloqotga kirishish, sabr, empatiya va ijobiy psixologik muhitni saqlashni talab etadi. Talabalarda hissiy barqarorlikning shakllanishi ularning stressga chidamliligini, o‘quv motivatsiyasini, shuningdek, kasbiy o‘zini anglash jarayonini kuchaytiradi.

Shu boisdan, pedagogik-psixologik adabiyotlarda stress holatining sabablari, shakllanish bosqichlari, ta‘sir mexanizmlari, undan chiqish strategiyalari, hamda stressning pedagog shaxsiga ta‘siri keng yoritilgan. Ushbu adabiyotlar asosida o‘qituvchining stressga qarshi kurashish imkoniyatlari, psixologik himoya mexanizmlari va hissiy barqarorlikni shakllantirish yo‘llarini aniqlash mumkin.

Ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan bo‘lajak pedagoglar — xususan, ingliz tili o‘qituvchilari — ko‘plab psixologik to‘siqlar, emotsional bosimlar, tashkiliy qiyinchiliklar va shaxsiy muammolar bilan to‘qnash kelishadi. Ushbu omillar ularning emotsional barqarorligiga, kasbiy o‘sishiga va ta‘limiy sifatga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, stress tushunchasi, uning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, shuningdek, stressga qarshi kurashish usullarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Stress — bu organizmning ichki muvozanatini buzadigan omillarga (stressorlarga) nisbatan ko'rsatgan umumiy javob reaksiyasi bo'lib, insonning hayotda duch keladigan bosim, tashvish va sinovlarga javob sifatida paydo bo'ladigan ruhiy va jismoniy zo'riqish holati. Har qanday stress reaksiyasi organizmda ogohlantiruvchi signal, qarshilik ko'rsatish va charchash bosqichlari orqali yuzaga chiqadi. Ushbu nazariya nafaqat tibbiyot, balki pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalarida ham keng qo'llanilib kelmoqda.

Stressga bardoshlilikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini tahlil qilish, adaptatsiya jarayonining psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularni pedagogik jarayonda qo'llash orqali shaxsiy hamda professional rivojlanish uchun samarali konseptual yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi.



1.1.-rasm. Stressga bardoshlilik jarayonining ahamiyati

Pedagogik faoliyat jarayonida hissiy barqarorlikni shakllantirish doimiy psixologik o'z-o'zini nazorat qilish, stressga chidamlilikni rivojlantirish, ijobiy emotsional fon yaratish, hamkasblar va o'quvchilar bilan sog'lom muloqot o'rnatishni talab etadi. Bu jarayon pedagogik mahorat, emotsional intellekt, shaxsiy refleksiya va kasbiy motivatsiyaning uyg'unlashuvi bilan amalga oshadi.

1.1.-jadval.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining hissiy barqarorligini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari

Asosiy yo'nalish	Mazmuni	Vositalar	Natija
------------------	---------	-----------	--------

Hissiy barqarorlikni shakllantirish	O'qituvchining emotsional muvozanatini saqlash va stressga chidamlilikni rivojlantirish	Treninglar, refleksiya, stressni boshqarish texnikalari, psixologik mashg'ulotlar	Barqaror emotsional holat, ijobiy psixologik muhit, o'quvchilarga ijobiy namuna
Hissiy barqarorlikni rivojlantirish	Kasbiy faoliyat davomida emotsional intellektni takomillashtirish va moslashuvchanlikni oshirish	Interfaol usullar, o'z-o'zini tahlil qilish, shaxsga yo'naltirilgan metodlar, relaksatsiya mashqlari	O'quvchilar bilan samarali muloqot, kasbiy o'sish, motivatsiyaning kuchayishi, stressga chidamlilik

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish metodikasi zamonaviy pedagogik jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Hissiy barqarorlik o‘qituvchining kasbiy faoliyatida nafaqat o‘zini ruhiy jihatdan boshqarish, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, stressli vaziyatlarda muvozanatni saqlash va ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladigan asosiy shaxsiy kompetensiyalardan biridir. Ingliz tili o‘qituvchilari o‘z faoliyatida ko‘p madaniyatli muloqot muhiti, turli psixologik holatlar va intensiv kommunikatsion jarayonlarga duch keladi, shu bois ularning hissiy barqarorligi yuqori darajada shakllangan bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish metodikasi shaxsning professional tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuv orqali o‘qituvchilar o‘zini o‘zi tahlil qilish, hissiyotlarni boshqarish, o‘quvchilar bilan ijobiy psixologik muhit yaratish hamda kasbiy rivojlanishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bobning *“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining hissiy barqarorligini shakllantirish metodik muammo”* nomli birinchi bo‘limida pedagogik faoliyat nafaqat bilim berish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish jarayoni, balki o‘qituvchining doimiy emotsional yuki ostida ishlashini ham talab qiladi. Bu faoliyat turi o‘z tabiatiga ko‘ra hissiy jihatdan murakkab va barqarorlikni talab etadigan sohalaridan biridir. Shu sababli, o‘qituvchining hissiy barqarorligini shakllantirish va uni rivojlantirish muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni tushuna olishi, ularning kayfiyati va ehtiyojlariga to‘g‘ri munosabat bildira olishi kerak. Bu uchun emotsional sezgirlik, empatiya va o‘z his-tuyg‘ularini anglay olishi zarur.

O‘qituvchilarning hissiy barqarorligini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- psixologik treninglar va relaksatsion mashg'ulotlar;
- stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan dasturlar;
- kasbiy refleksiya va o‘zini anglash mashg'ulotlari;

- empatiya va emotsional intellektni rivojlantiruvchi texnologiyalar;
- hamkasblar bilan emotsional qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil qilish;
- muvozanatli ish va dam olish rejimini tashkil etish.

O'qituvchining hissiy barqarorligi – uning kasbiy samaradorligi, shaxsiy salomatligi va o'quvchilarga ko'rsatadigan pedagogik ta'sirining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardandir. Bugungi kunda bu borada tizimli yondashuvni shakllantirish, zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Hissiy barqarorlik esa bu jarayonda stress omillariga qarshi turuvchi psixologik himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Barqaror emotsional holatga ega bo'lgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi o'z hissiyotlarini nazorat qila oladi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilib, oqilona qaror qabul qiladi va stressli sharoitlarda muvozanatni saqlab qoladi. Aksincha, hissiy barqarorlik past bo'lsa, stress kuchayadi, bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonini murakkablashtiradi va o'qituvchi shaxsida ishonchsizlik, charchoq, motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

2.1.-jadval.

O'qituvchining hissiy barqarorligini shakllantirishning asosiy xususiyatlari

Tartib raqami	Xususiyat nomi	Tavsifi
1.	Emotsional refleksiya	O'qituvchi o'z hissiyotlarini anglay olishi va ularni baholay olishi kerak. Bu o'zini tahlil qilish orqali erishiladi.
2.	Stressga bardoshlilik	Qiyin sharoitlarda o'zini yo'qotmaslik, muammolarni sovuqqonlik bilan hal qila olish qobiliyati.
3.	Hissiy o'zini boshqarish	Salbiy his-tuyg'ularni ijobiy yo'naltirish va boshqarish ko'nikmasi.
4.	Muloqotda hissiy barqarorlik	O'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqotda hissiy barqarorlikni saqlash zarur.
5.	Professional empatiya	O'quvchilarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan ijobiy yondashuvni namoyon qilish.
6.	Motivatsiyani saqlab qolish	O'qituvchi o'z faoliyatiga ijobiy ruhda yondashib, ichki motivatsiyani doimiy rivojlantirishi lozim.
7.	Psixologik xizmatlardan foydalanish	Zarurat bo'lsa, psixologik yordam olish yoki o'z-o'zini rivojlantirish texnikalaridan foydalanish.
8.	Refleksiv tahlil asosida o'zini rivojlantirish	Har bir dars yoki vaziyatdan saboq olish, o'z ustida ishlash.

Kasbiy tayyorgarlikda hissiy barqarorlik va stress o'rtasidagi bog'liqlik shuni ko'rsatadiki:

• **hissiy barqarorlik yuqori bo'lsa** – stress darajasi pasayadi, pedagogik vaziyatlarga moslashish tezlashadi;

• **hissiy barqarorlik past bo'lsa** – stress darajasi ortadi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari to'liq namoyon bo'la olmaydi.

Shu sababli, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida hissiy barqarorlikni mustahkamlash stressni boshqarishning eng muhim sharti sifatida qaraladi. Bu yo'nalishda psixologik treninglar, stressni kamaytirish texnologiyalari, emotsional intellektni rivojlantirish mashg'ulotlari, shaxsiy refleksiya metodlarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuv nafaqat o'qituvchining ruhiy salomatligini saqlashga, balki kelgusida kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishiga ham zamin yaratadi.

Bobning *"Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirish texnologiyalari"* nomli ikkinchi bo'limida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini, jumladan, hissiy barqarorligini shakllantirish ayniqsa, ingliz tili o'qituvchilari uchun bu jihat nihoyatda muhim, chunki chet tili o'rgatish jarayoni ko'p komponentli, madaniyatlararo muloqotga boy, noan'anaviy metodik yondashuvlarni talab qiladi.

Didaktik tamoyillar – bu ta'lim mazmuni, shakllari va metodlariga yo'naltiruvchi asosiy qoidalar bo'lib, ular o'qituvchi faoliyatini pedagogik jihatdan samarali yo'naltirishga xizmat qiladi. Mazkur tamoyillarni amaliyotda to'g'ri qo'llash bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining hissiy barqarorligini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

1. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilganlik tamoyili. Ushbu tamoyil asosida dars jarayonlari shunchaki bilim berishga emas, balki o'quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik holatiga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv o'qituvchining ham o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishiga, stressni boshqarishga, shaxslararo muloqotni ijobiy tashkil qilishga o'rgatadi. Natijada, bo'lajak o'qituvchi o'zida hissiy barqarorlikni bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

2. Faollik va mustaqillikni rivojlantirish tamoyili. Chet tilini o'rgatish mashg'ulotlarida faollik va mustaqillikni rag'batlantirish orqali o'qituvchi o'zining o'quvchilarga ta'sirini ko'proq kuzatish, vaziyatga mos qaror qabul qilish, dinamik psixologik sharoitda ishlash malakalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda hissiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim psixologik jihatlar – o'zini tuta bilish, sabr, ijobiy fikrlash kabi fazilatlar mustahkamlanadi.

3. Ko'rgazmalilik va multimedia taqdimotlardan foydalanish tamoyili. Zamonaviy ingliz tili mashg'ulotlari ko'rgazmali vositalar, audio-video materiallar, interaktiv texnologiyalar bilan boyitilganda, o'qituvchi o'z fikrini aniq ifoda etish, darsdagi stressli vaziyatlarni kamaytirish, auditoriya bilan ijobiy aloqani saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bular esa o'qituvchining ruhiy-psixologik barqarorligiga xizmat qiladi.

4. Bosqichma-bosqichlik va tizimlilik tamoyili. Bu tamoyil asosida mashg'ulotlar ketma-ketlik va tizimli asosda tashkil etiladi. Bunday yondashuv o'qituvchiga o'z rejalari ustida nazorat o'rnatish, o'z faoliyatini baholash, shuningdek, o'zgaruvchan sharoitga moslashish imkonini beradi. Natijada, o'qituvchi o'zining hissiy kechinmalarini tartibga sola oladi.

5. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish tamoyili. Chet tili o‘rgatish jarayonida har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘z faoliyatiga baho berish, kamchiliklarni aniqlash, ijobiy jihatlarni ko‘rsatish orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘zini anglashga, o‘z hissiyotlarini chuqur tahlil qilishga o‘rganadi. Bu esa hissiy barqarorlikning eng asosiy bosqichlaridan biridir.

Coding – interfaol ta’lim metodi

Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir matnni taqdim etadi va o‘quvchilarga matnda berilgan gaplarni har biridan so‘ng maxsus belgilar ya’ni qanday emotsianallikni his qilgan bo‘lsa, o‘sha emotsiyasini ifodalovchi belgilarni qo‘yishni vazifa qilib beradi. O‘quvchi matnda berilgan gaplarni o‘qib unga o‘zining hissiyotini bildirgan holda gap so‘ngida, agar o‘quvchi mamnun bo‘lsa (••) belgisini, xafa bo‘lsa (•~•) ,gap ma’nosini anglamagan bo‘lsa (•_•) shu kabi belgilarini qo‘yadi. O‘quvchilar berilgan vazifani bajarib bo‘lgach, bir-birlari bilan o‘z ishlarini muhokama qilishadi va o‘qituvchiga o‘z fikrlarini bildirishadi.

2.1 –rasm. Coding – interfaol ta’lim metodi mazmuni

Shuningdek, ushbu bobda zamonaviy til o‘qitish metodikasida til ko‘nikmalarining to‘rt turi – tinglash, o‘qish, gapirish va yozish – talabalarning lingvistik, kognitiv hamda hissiy rivojlanishini ta’minlashi xususida fikr yuritilgan bo‘lib, ushbu faoliyat turlari davomida vujudga keladigan hissiy holatlarni boshqarish va barqarorlikni shakllantirish jarayoni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyat kasb etadi.

2.2-jadval.

Til ko‘nikmalariga hissiy ta’sir etuvchi omillar va bartaraf etish yo‘llari

T/r	Ko‘nikmalar	Hissiy ta’sir etuvchi omillar	Bartaraf etish yo‘llari

1	Tinglab tushunish	a) noodatiy fonetik ohang va begona talaffuz, tezkor va jadal nutq shaklidan stressga tushish; b) xato qilishdan yoki noto'g'ri tushunishdan qo'rqish; d) diqqatni jamlay olmaslik.	bosqichma-bosqich o'rgatish; turli variantli aksentlar bilan tanishtirish; faol tinglash texnikalarini o'rgatish; sinxron nutqni qaytarish texnikasi (shadowing)dan foydalanish.
2	O'qish	a) murakkab akademik matnlar; b) diqqatning tez chalg'ishi; d) maqsadsiz o'qish.	kognitiv qayta yo'naltirish; o'qish strategiyalarini o'rgatish; turli janrdagi matnlar bilan ishlash va o'qishni faollashtirish.
3	Gapirish	a) gapirishdan qo'rqish (Glossophobia); b) o'ziga ishonchsizlik; d) mukammallikka intilish va qiyoslash.	psixologik jihatdan qulay nutqiy mashg'ulotlar; "O'rgatish" usulidan foydalanish; mukammallik emas, aloqa muhimligini ta'kidlash va pozitiv fikr-mulohaza.
4	Yozuv	a) yozuvchilikdagi blok (writer's block); b) grammatik va orfografik xatolardan qo'rqish; d) mukammal darajaga erishish istagi va qiyoslash.	erkin yozish (free academic writing); o'zaro fikr almashish (peer feedback); pozitiv psixologik yondashuv.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihati shundaki, u doimiy emotsional yuklama, vaqt bosimi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlardan kelib chiqadigan psixologik sinovlar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida stressni boshqarish bo'yicha samarali metodik yondashuvlarni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy ruhiy salomatligi, balki kelajakdagi ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash uchun ham zarurdir.

Stressga bardosh berish qobiliyati — bu o'qituvchining og'ir pedagogik vaziyatlarda hissiy holatini saqlab qolish, muammoli holatlarni hal qilishda mantiqiy yondasha olish, salbiy emotsiyalarni nazorat qila olish va konstruktiv yechimlar qabul qila olish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikmaning rivojlangan darajada bo'lishi o'qituvchining sog'lom psixologik muhit yaratishiga, o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirishishiga, shuningdek, dars jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar yoki tashqi bosimlarga bardosh bera olishiga xizmat qiladi.

Stressga bardosh berish qobiliyatining rivojlanganligi bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy salohiyati va emotsional barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bu ko'nikma oliy ta'lim jarayonida izchil va tizimli yondashuv asosida shakllantirilsa, o'qituvchi nafaqat dars berishda muvaffaqiyat qozonadi, balki o'z kasbiga ijobiy munosabatda bo'lgan holda, professional shaxs sifatida yetishadi. Stressga bardosh berish qobiliyatining rivojlanganligi avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash, emotsional intellektni

rivojlantirish va hissiyotlarni nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida relaksatsiya mashqlari, nafas olish texnikalari, meditatsiya kabi stressni kamaytiruvchi usullarni qo'llash, konfliktlarni konstruktiv hal etish strategiyalarini o'rgatish o'qituvchining kasbiy barqarorligini kuchaytiradi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida stressga chidamlilikni oshirish uchun pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, o'z-o'zini baholash, refleksiya mashg'ulotlarini muntazam o'tkazish ham samarali natija beradi.


*Hissiy barqarorlik*⁶ – bu shaxsning turli stress omillariga bardosh bera olish, o'z hissiyotlarini nazorat qilish, vaziyatga mos ravishda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun ushbu sifatning shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko'p madaniyatli muloqot muhitida ishlaydi, turli psixologik va pedagogik vaziyatlarga moslashishi zarur bo'ladi.

Hissiy barqarorlik shaxsning intellekti bilan belgilanib, uning amalga oshirayotgan aqliy faoliyati sifati bilan bog'liqdir. Insonning fikrlash faoliyati, ruhiy holatga va shaxsning o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish darajasiga ta'sir ko'rsatgan holda, uning amaliy faoliyatni boshqara olish, zarur bo'lgan ma'lumotni aniqlay olish, hayot faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi turli muammolarni hal eta olish, vujudga kelgan vazifalarni hal qilishda adekvat munosabatni shakllantirish, faoliyatning samarali vosita va usullarini tanlay olish qobiliyati bilan belgilanadi.

